FARG‘ONA VILOYATI MARG‘ILON SHAHAR HOKIMINING

Q A R O R I

2022 - yil 26 - dekabr 472-11-168-Q/22 Marg‘ilon shahar hokimligi

“Dafn etish joylarini saqlash qoidalarini tasdiqlash haqida

O‘zbekiston Respublikasining “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi qonuni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami 2010 yil,52-son,508-modda) ga va Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 4 apreldagi “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 101-sonli qarori (O‘zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari to‘plami 2011 yil,4-soni)ga muvofiq Marg‘ilon shahar hududidagi mavjud qabristonlarda dafn etish joylarini saqlash tartibini belgilash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 25-moddasiga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N:

1.”Dafn” etish joylarini saqlash qoidalari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2.Shahar Obodonlashtirish boshqarmasi (Z.Mamajonov), Mahalla va nuroniylarni qo‘llab quvvatlash bo‘limi (A.Raxmonov)ga:

- “Dafn” etish joylarini saqlash qoidalari talablarini to‘la va sifatli bajarilishini ta’minlash va nazorat qilish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi topshirilsin.

3.Shahar hokimligi matbuot xizmati (A.Mansurov), Marg‘ilon haqiqati” ro‘znomasi va “Ruxsor” teleradiokanali (N.Asqarov)ga;

- Mazkur qarorning to‘liq matnini ommaviy axborot vositalari orqali e’lon qilinishini ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

4.Shahar hokimligi matbuot xizmati (A.Mansurov) ushbu qarorning matnini hokimlikning rasmiy veb saytiga joylashtirsin.

5.Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6.Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari v/b S.Abduraximov zimmasiga zimmasiga yuklatilsin.

Marg'ilon shahar hokimi **A.Ziyavitdinov**

Marg‘ilon shahar hokimining
2022 yil 26 dekabrdagi
472-11-168-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Dafn etish joylarini saqlash qoidalari

Mazkur qoidalar O‘zbekiston Respublikasining “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi qonuni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami 2010 yil, 52son,508-modda)ga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 4 apreldagi 101-sonli “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi qarori (O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to‘plami 2011 yil,4-soni,25-modda) talablariga asosan ishlab chiqilgan bo‘lib, Marg‘ilon shahar hududida dafn etish joylarini saqlash tartibini belgilaydi.

1.Umumiy qoidalar.

1.Qabrlar, sag‘analar, shuningdek, dafn etishni amalga oshirishga mo‘ljallangan boshqa binolar va inshootlarni barpo etish uchun ekologik me’yorlarga, sanitariya, shaharsozlik va boshqa me’yorlar hamda qoidalariga muvofiq ajratilgan yer uchastkalari qabristonlar hisoblanadi.Qabristonlar moddiy madaniy meros ob’ektlari jumalasiga kiritilishi mumkin.

2.Shahar hududidagi qabristonlar shahar hokimligining bevosita tasarrufida bo‘lib, ularni zarur holatda saqlash va obodonlashtirish vazifasi shahar obodonlashtirish boshqarmasi zimmasiga yuklatiladi.

3.Diniy tashkilotlar bilan kelishib, har bir diniy konfessiya uchun uchastkalarning chegaralarini qat’iyan chegaralangan holda kompleks, ko‘p konfessiyali qabristonni ochishga va ulardan foydalanishga yo‘l qo‘yiladi.

11.Qabristonlarni saqlash.

4.Marg‘ilon shahar hududida qabristonlarni saqlash, ulardan foydalanish va qabr usti yodgorliklarini o‘rnatish shaharning mahalliy aholisi, shuningdek, boshqa millatlar va xalqlarning mavjud an’analari, urf-odatlari va udumlariga muvofiq amalga oshiriladi.

5. Qabristonlarning maydonlari, ulardagi bino-inshoot, qurilmalarining kadastr hujjatlari Kadastr agentligining davlat kadastrlari palatasining Farg‘ona viloyat boshqarmasi Marg‘ilon shahar filiali tomonidan belgilangan tartibda,

mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan tayyorlanadi.

6. Qabristonlarning kadastr hujjatlari shahar Obodonlashtirish boshqarmasining qabristonlarni saqlash bo‘limida saqlanadi.

7. Qabristonlardagi bino-inshoot va qurilmalar shahar qurilish boshqarmasi me’yoriy hujjatlariga asosan shahar hokimining tegishli qarori asosida mahalliy byudjet hamda xayr-ehson mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

8. Dafn etish joylari buzib tashlanishining oldini olinadi. Doimiy ravishda suv ostida qolish, ko‘chkilar hamda boshqa tabiiy ofatlar tahdid etgan taqdirda belgilangan tartibda faqat shahar hokimining qaroriga binoan yangi joyga ko‘chiriladi.

9. Ilgari dafn etish joylari joylashgan hududlardan foydalanishga ular ko‘chirilgan paytdan e’tiboran yigirma yilgacha ruxsat berilmaydi. Bunday holda ushbu hududlardan faqat manzarali dov-daraxt ko‘chatlari o‘tkazish uchun foydalaniladi. Bu hududlarda binolar va inshootlar qurilmaydi.

10. Qabristonlar hududida mol va boshqa uy jonivorlarni boqish man etiladi.

11. Ekologik normalar, sanitariya normalari va qoidalari, shuningdek dafn etish joylarini saqlash qoidalari buzilgan taqdirda dafn etish joyida ishlar bajarilishini va xizmatlar ko‘rsatilishini shahar hokimligi tomonidan to‘xtatib turiladi yoki tugatiladi hamda yo‘l qo‘yilgan qoidabuzarliklar bartaraf etiladi va dafn etish joyining inson sog‘ligi hamda atrof tabiiy muhitga nomaqbul ta’siriga barham beriladi, zarur hollarda esa yangi dafn etish joyini barpo qilish choralari ko‘riladi.

12. Qabrlar borligi ehtimoli bo‘lgan hududlar har qanday ishlarni amalga oshirishdan oldin shahar hokimligi tomonidan tegishgi vakolatli idoralar orqali tekshiruvdan o‘tkaziladi.

13. Eski va ilgari noma’lum bo‘lgan qabrlar aniqlangan taqdirda shahar Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan bunday qabrlar belgilab qo‘yiladi va ro‘yxatga olinadi, zarur hollarda dafn etilganlarning saqlanib qolgan tana qismlari qayta ko‘milishi tashkil etiladi.

14. Mahalliy davlat Hokimiyati organlarining tegishli ruxsatnomasiga ega bo‘lmagan yuridik yoki jismoniy shaxslarning eski va ilgari noma’lum bo‘lgan

qabrlarni qidirish hamda ochishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

15. Arxeologiya merosi ob’ektlari bo‘lgan eski va ilgari noma’lum bo‘lgan qabrlarni qidirish hamda ochish arxeologiya merosi ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

16. Qabristonlarning butun hududi to‘siqlar bilan o‘raladi hamda o‘zaro yo‘llar va xiyobonlar bilan bo‘lingan, tartib raqamlari qo‘yilgan sektorlarga, uchastkalarga bo‘linadi.

17. Qabristonlarni obodonlashtirish, mukammal ta’mirlash, ularni zarur darajada saqlash mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan amalga oshirilib, xarajatlarning alohida moddasi bo‘yicha mablag‘lar ajratiladi. Bunda qabr qazish va marosim xizmatlari bo‘yicha ishchilarga ega bo‘lish ko‘rsatilgan pullik xizmatlar uchun aholidan tushgan mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladi.

18. Qabristonlarni saqlash va obodonlashtirish fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari ko‘magida hashar yo‘li bilan hamda yuridik va jismoniy shaxslarning xayr-ehsonlaridan ham foydalanib amalga oshiriladi.

19. Qabrlarni joylashishi ketma-ketlik tartibida raqamlangan holda amalga oshiriladi.

20. Dafn marosimlarini ro‘yxatga olish daftaridagi tartib raqami qabr ustidagi ustuncha raqami bilan bir xil bo‘lishi kerak.

21. Qabristonlarda obodonlashtirish va tozalov ishlari bo‘yicha bir yilda kamida 2 marotaba mahalla fuqarolar yig‘inlari bilan hamkorlikda aholi tomonidan hasharlar tashkil etiladi.

22. Qabristonlarga ziyoratga keluvchilar uchun darvoza eshiklarini ochib-yopish vaqti ertalabki soat 6.00.dan kech 20.00.gacha belgilanadi.

23. Qabriston hududiga giyohvand moddalar hamda spirtli ichimliklar ichgan fuqarolarni kirishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

24. Har bir qabristondagi dafn etishni amalga oshirish huquqini beradigan barcha hujjatlar belgilangan tartibda tikilib, saqlash uchun tegishli arxivlarga topshiriladi.

25. Qabristonlarda o‘zboshimchalik bilan biron bir qurilish qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

26. Har bir qabristonda alohida qayd etish kitoblari yuritilib, dafn etish ishlari amalga oshiriladi.

27. Qabrlar hajmini me’yordan ortiq yoki kam bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

28. Qabristonlarda mevali daraxtlar hamda qishloq xo‘jalik mahsulotlari ekilishi ta’qiqlanadi.

29. Qabristonlar yerlarini o‘zboshimchalik bilan egallab olgan yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan qonunda belgilangan tartibda tegishli choralar ko‘riladi.

30. Qabristonlardan tranzit yo‘l sifatida foydalanish ta’qiqlanadi.

31.Qarovsiz holatga kelib qolgan qabrlarni qabrga daxldor xonadonlarni(fuqarolarni) topib tartibga solishni tashkil etish mahalla fuqarolar yig‘inlari hamda qabriston xodimlari zimmasiga yuklatiladi.

32. Qabristonlarga xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar, tegishli mahalla fuqarolar yig‘inlari tavsiyasiga asosan shahar obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan ishga qabul qilinadi.

33. Qabristonlar xududlaridagi qurigan, yaroqsiz, biologik kasallangan daraxtlarni tegishli hujjatlar asosida kesish, obodonlashtirish boshqarmasining qabristonlarni saqlash uchastkasi boshlig‘i ishtirokida va javobgarligida amalga oshiriladi.

34. Qabristonlar hududlaridagi bo‘sh maydonlarga aholi istagi bilan shahar Obodonlashtirish boshqarmasi bilan kelishgan holda manzarali ko‘chatlar ekilishi mumkin.

35. Qabristonlar hududidagi daraxtlar va boshqa o‘simliklarni shuningdek qabrlarni har xil zararli hasharotlar, kemiruvchilardan saqlash uchun me’yoriy muddatlar bo‘yicha har oyda dorilash ishlari amalga oshiriladi.

36. Qabriston nazoratchisi va boshqa xodimlari tomonidan dafn marosimlari bilan bog‘liq masalalar bilan murojaat qilgan fuqarolarga to‘liq tushuncha, maslahat, ko‘rsatmalar berilishi lozim.

37. Qabristonga dafn marosimini o‘tkazish uchun kelgan fuqarolarni o‘rindiqlar bilan ta’minlanishi hamda tungi vaqtlarda qabristonni yoritilishi ta’minlanishi lozim.

38. Qabriston hududida sodir bo‘lgan turli hodisa, voqealar hamda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida nazoratchi tomonidan har kuni ertalab qabristonlar bo‘yicha bo‘lim rahbariyatini xabardor qilib borilishi talab etiladi.

111.Nazorat va javobgarlik.

39.Mazkur qoidalarga rioya qilinishini nazorati shahar Obodonlashtirish boshqarmasi qoshidagi qabristonlarni saqlash bo‘limi zimmasiga yuklatilsin.

40.Ushbu qoidalarni talablariga rioya qilmagan shaxslar belgilagan tartibda javobgarlikka tortiladilar.

1U.Yakuniy qoidalar.

41. Mazkur qoidalar shahar Obodonlashtirish boshqarmasi, shahar Davlat sanitariya va epidemiologiya nazorati markazi, Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi, shahar Moliya bo‘limi, shahar Tabiatni muhofaza qilish inspeksiyasi hamda shahar Arxitektura va qurilish boshqarmasi bilan kelishilgan.